

**BOSHLANG`ICH SINFLARDA XALQ OG`ZAKI IJODNING
AHAMIYATI**

Jabborova Sitorabonu

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand filiali

Boshlag`ich ta`lim yo`nalishi 1-kurs talabasi

Jabborova Sitorabonu

Samarqand Branch of Tashkent International

University of Kimyo student of primary

Education

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'izaki ijodi orqali o'quvchilar taffakurini o'stirish va ma'naviy tarbiyaviy ahamiyat haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'izaki ijodi ertak topishmoq doston milliy qadryatlar.

Abstract

In this article we talk about the spiritual and educational importance of developing students thinking through folklore in primary school reading classes.

Keywords: folklore tale riddle, epic national values.

Yoshlarga ta'lif tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Taraqqiyoti insonlarning ongiga aql-zakovati axloq-odobiga ko'p jihatga bog'liq bo'ladi. Yaxshi tarbiya ko'rgan kishi eng avvalo el-yurtning xalqning manfaatini o'ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodat alohida o'z holicha amalga oshmaydi.

Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan beri mavjud va unga hamma turlicha amal qilib kelmoqda. Insoniyat boshidan kechirgan turli jamiyatlarda mafkura g'oya siyosiyat va ijtimoiy qonun qoidalar bir biridan farq qilgan. Talim va tarbiya ishlari ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud jamiyatning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan. Shu asosida xilma-xil talim tarbiya tizimlari paydo bo'lgan. Yangicha qarashlar taminotlar nazariya va amaliy tajriba namunalari tarkib topgan. Hali odamlar yozish o'qishni bilmagan paytlarda yoshlarga talim tarbiya berish haqidagi qarashlar xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etgan. Uzoq davrlar tajribada sinalib sayqallanib borgan. Kuchli tarbiyaviy tasir ko'rsatish darajasiga yetgan. Yozish o'qish paydo bo'lgandan keyin ham xalq og'zaki ijodi o'z mavqeini yo'qotmagan yozma adabiyotlar mazmuniga sindirilgan holda tasirchaligi yanada ortib borgan. Boshlang'ich talimda bolani aqliy tarbiyasini

kuchaytiradigan tarbiyaning boshqa yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqlikda olib boriladigan bilim va dunyoqarashning ko'nikmalari kengaytiradigan eng asosiy yuqori sinflarda muvaffaqiyatli talim olishini taminlaydi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlar ularning bo'limlari har bir mavzu va tushunchalar alohida etibor bilan tanlanadi. O'quvchining bilim saviyasi va darajasiga mos holda aqlining o'sib borishini taminlaydigan kundalik turmush amaliyotda foydalanadigan hayotda sodir bo'lgan voqeja va hodisalarining mohiyatini anglatuvchi materiallar o'tiladi. Buning uchun har bir fanning mazmuniga kirgan mavzular mutaxssis va olimlar tomonidan alohida tanaladi.

Xalq og'zaki ijodi ota-bobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pand nasihatlari el ezozlangan odam bo'lishning talab qoidalari Alpomish, To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajobiy yurt farzandlarining botirliklari xalqimizning urf-odatlari milliy fazilatlarimiz haqida so'z boradi. Xalq og'zaki ijodi namunalarining yoshlarga talim tarbiya berishga qaratilganlarini fanda xalq pedagogikasi deb yuritiladi. Badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli xalq og'zaki ijodi folklor hisoblanadi. Og'zaki yaratilgan va og'zaki tarqalgan xalq shoirlari yoki jamoa tomonidan yaratilgan og'izdan og'izga avloddan avlodga o'tib kelgan badiiy asarlar hozirda xalq og'zaki ijodi yoki folklor (ing folk xalq) lore bilim donolik donishmandlik) deb yuriladi. Og'zaki va badihago'ylik og'zaki ijod asarlarining shakliy ko'rinishi bilan bog'liqidir. Asrlar davomida bizgacha yetib kelgan doston, ertak qo'shiq, maqol va boshqa asarlar og'zaki tarzda yaratilgan ajdodlardan -avlodlarga o'tgan va xalq madaniyatining og'zaki merosiga aylangan. Badihago'ylik. Xalq og'zaki ijodidagi bevosita og'zakilik xususiyatidan kelib chiqadigan belgidir. Badihago'ylik yozma ijodda yo'q chunki yozma jarayon individual ijod bilan bog'langandir. Zamoaviylik va ommaviylik tushunchasi ham xalq og'zaki ijodida muhim belgi hisoblanadi. Bu o'rinda asarning yaratilishi jamoa bilan uning tarqalishi xalq orasida yashashi ommaviylik bilan bog'liqligini takidlab o'tish zarur.

An'anaviylik xalq og'zaki badiiy ijodining asrlar davomida hayot tajribasida sinalgan asosiy xususiyatlaridan biridir. Gap shundaki xalqning hordiq chiqarishida madaniy dam olishida asosiy vosita hisoblangan doston, ertak, qo'shiq askiya topishmoq ijrolari qadim zamonlardan buyon malum ananaga bo'ysunadi. Ko'p nusxalilik va tarmoqlilik yozma ijodda deyarli ko'zga tashlanmaydi. Chunki bir asarning bir muallif tomonidan turli o'zgarishlar bilan o'quvchiga taqdim etilishi son va sifat jihatidan variantlilikning vujudga kelishiga imkon bermaydi. Anonimlik xalq og'zaki ijodi asarlari yaratgan dastlabki muallif nomining malum emasligidir. O'zbek xalq og'zaki ijodi o'nlab doston va ertaklardan yuzlab qo'shiqlardan minglab maqol hamda topishmoqlardan tashkil topgan lekin an'anaviy og'zaki ijodi namunalariga taalluqli asarlarning birortasi uni yaratgan muallif nomi bilan yuritilmaydi. Xalq og'zaki ijodi namunalarining yoshlarga talim va tarbiya berishga qaratilganlarini fanda xalq

pedagogikasi deb yuritiladi. Xalq ommasining turmush kechirish jarayonida to'plangan talim tarbiya borasidagi tajribalar va bilimlar yig'indisi xalq pedagogkasining mazmunini ifodalaydi. Xalq pedagogikasi mehnatkash xalq va donishmadlarning yoshlarni kutilgan maqsadga muvofiq barkamol kishilar qilib etishtirishda tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo'lган qarashlari ham xalq ommasi tomonidan talim tarbiya ishlarini amalga oshirish borasida qo'llanib kelingan usul vosita ko'nikma va malakalar birligi tajribalar asosida to'plangan bilim va ma'lumotlar yig'indisidir. Ulardan talim jarayonida foydalanish o'quvchilarni milliy o'zligini anglashga mustaqil O'zbekistonning munosib farzandlari bo'lishiga katta hissa qo'shamdi. Shu tufayli ham Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning mazmuniga xalq og'zaki ijodi namunalaridan kiritilib kelinadi. Xalq dostonlari, maqollar, matallar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar, afsona va rivoyatlar yoshlarning dunyo qarashini shakllantiradi oliyjanob insoniy fazilatlarni tarkib toptiradi.

Ertaklar. Yaxshilikka yetaklar deb xalqimiz bejizga aytishmagan. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati katta. Ertaklar yordamida yaxshilik va yomonlik sahrolarida adiru tog'liklaridan sayohat qiladilar. Ana shu davrdan boshlab nima yaxshiyu nima yomon ekanligini anglay boshlaydi. Bolalar ulg'aygan sari o'zlaridan kichiklarga ertak aytib berishga ularni aqli vazmin bo'lishga injiq qiliqlarini tashlashga undaydi. Umuman olganda xalq og'zaki ijodi kattayu kichik yoshu qari uchun birdek donishmandlik majmuasi hisoblanadi.

Rivoyatlar. Mazmun yo'nalishiga ko'ra tarixiy voqealar ularda ishtirot etgan shaxslar jasorati yoki xiyonati asosida yoki yurtimiz viloyatlaridagi o'rinn joylarning nomlanishini izohlash maqsadida yaratilgan turlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi yurti ozodligi va mustaqilligi uchun jonini qurban qilgan el farzandlari mardligi shu bilan birga o'zining o'tkinchi hirsiy nafsi yo'lida vataniga xiyonat qilgan Dalvarzin Guldursunga o'xshagan xiyonatkor shaxslar kirdikorlari hikoya qilinadi. Maqol va topishmoq bu ikki tushuncha inson tafakkurining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Maqollar insonni axloq-odobga o'rgatsa topshimoqlar uni mantiqiy fikrlashga topqirlikka, hozirjavoblikka undaydi. Maqol inson nutqini bezaydi xalqimizda << so'z ko'rki maqol >>deb bejiz aytilmagan. Uning tasir kuchini oshiradi. Maqollar pand - nasihatlar tarbiyaviy suhbatlarda o'git sifatida ham keladi. Buning boisi har bir maqol ota-bobolarimiz tomonidan yaratilib bir necha mingyilliklar davomida sayqal topib kelayotgani yaxshilik ezgu ishlarga undaydigan bebaho ma'nsviy boyligimiz. Topishmoqlar kishining tasavvuri va tafakkurini o'stiradi ayniqsa bolalarni topag'on bo'lishga hozir javoblikka o'rgatadi. Maqol va topishmoqlar o'zlarining o'xshash va farqli jihatlaridan qati nazar inson tarbiyasiga xizmat qiladi uni ziyraklik va zukkolikka undaydi. Bola ular orqali o'z xalqining o'timishini mehnat faoliyatini orzu havas va intilishlarini bilib oladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchilarni

bilim olishga qiziqtiradi ongli va faol o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari asrlar davomida tajriba sinalgan hayotda takror -takror qo'llangan shubhasiz yaxshi natijalar bergen tushunchalarni aks ettiradi.

Folklorda tasvirlangan voqealik vaqt zamon etiboriga ko'ra o'tmishta daxldor shu sababli u yoki bu janr tabiatida shuningdek til xususiyatlarida o'sha qadimiy izlargina saqlanib qolgan. Folklor asarlari til jonli so'zlashuv tili shu bilan birga arxaik ifodalar va dealik-tizimlar ular uchun meyor sanaladi. Bu xususiyati bilan folklor tili adabiy jihatdan sayqallangan badiiy adabiyot tilidan farq qiladi. Folklor tili muttasil hararkatdagi jonli so'zlashuv tili bo'lib hamma zamonlarda ham adabiy tilining boyish mabayi bo'lib keladi va shunday bo'lib qoladi. Folklor asarlarining yozma adabiyot bilan aloqasi tilimiz lug'at boyligida namoyon bo'ladi. Unda biz unutilib borayotgan urf-odatlarimiz milliy qadriyatlarimiz so'zlarimiz o'z ifodasini topadi. Xalqning boy madaniy merosini saqlab qolish manaviyat sarchashmalarini avlodlarga yetkazishda albatta yozma adabiyotning ahamiyati beqiyos. Badiiy adabiyot paydo bo'libdiki xalq og'zaki ijodi bilan oziqlanadi uning go'zal namunalari qayta ishlanib sayqallashadi. Xulosa qilib aytganda boshlang'inch sinf o'quvchilarining manaviy-axloqiy jihatdan shakllanishi maktabning oila ta'sir ostida amalga oshib boradi. Boshlang'inch sinflarda nisbatan ko'proq o'rganiladigan ertaklar, topishmoq maqollarining til va badiiy xususiyatlari bir-biriga bog'liq bo'lib bolalar buni juda ajrata olishi kerak. Boshlang'inch sinf o'quvchilarini tarbiyalashda hech narsani etibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bola tarbiyasida kichik arizmas mayda chuda degan narsalar bo'lmasligi kerak. Ana shu arizmas narsalardan keyinchalik ulkan muammalar kelib chiqishini doim esa saqlash zarur. Maktabdan tashqari bola televizor va kompyuter o'ynamasda ko'p kitob xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanishsa ham aqliy ham axloqiy uchun ulkan hissa qo'shish mumkin.

ADABIYOTLAR

- 1) Omonulla Madiyev Toshkent; 2010-yil
- 2) Mo'minjon Sulaymonov Namangan; 2012-yil
- 3) Oxunjon Safarov Toshkent 2010-yil
- 4) Jo'rayev M Eshonqulov Toshkent 2017-yil.